FARG‘ONA VILOYATI YOZYOVON TUMANI HOKIMINING QARORI

150600, Yozyovon tumani Mustaqillik ko`chasi 1-uy, tel: (73) 412-15-15, www.yozyovon.uz

2024 - yil 11 - iyun 146-11-165-Q/24 Yozyovon tuman hokimligi

Yozyovon tuman hokimining 2024-yil 12-yanvar kungi 7-11-165-Q/24 sonli 3-sektor kotibi vazifasiga biriktirish to‘g‘risidagi qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019 yil 8 yanvardagi PQ 4102-sonli Qaroriga, “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan:

QAROR QILAMAN:

1.Yozyovon tumanida 3-sektor rahbari M.A.Qunduzovning 2024-yil 28-may kungi 41/1-530sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Yozyovon tumanida 3-sektor shtabi faoliyatini doimiy asosda tashkil etish maqsadida tuman IIB JXX, HPB Ijtimoiy profilaktika guruhi katta inspektori katta leytenant A.I.Rejapov boshqa ishga o‘tganligi munosabati bilan uning o‘rniga IIB JXX, HPB Ijtimoiy profilaktika guruhi katta inspektori mayor Z.M.Shumqorovni jamoatchilik asosida asosiy ish joyidan ajralgan hamda lavozim maoshi saqlab qolingan holda Yozyovon tumanida 3-sektor shtabi kotibi vazifasiga biriktirilsin.

3. 3-sektor shtabi faoliyatini doimiy asosda tashkil etish bo‘yicha ishchi guruh 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.Yozyovon tumani Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i M.Qunduzov, 3-sektor shtabi faoliyatini doimiy asosda tashkil etish maqsadida tuman IIB JXX, HPB Ijtimoiy profilaktika guruhi katta inspektori mayor Z.M.Shumqorov mazkur lavozimga

tayinlangan kunidan boshlab ichki ishlar organlarining xodimlarni moddiy rag‘batlantirish maxsus jamg‘armasiga ajratilgan mablag‘lar hisobidan har oyda qo‘shimcha ravishda lavozim maoshiga belgilangan tartibda ustama haq to‘lab borilsin.

5.Shu munabat bilan tuman hokimining 2024-yil 12-yanvar kungi 7-11-165-Q/24 sonli 3-sektor kotibi vazifasiga biriktirish to‘g‘risidagi qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb xisoblansin.

6. Mazkur qarorni nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi **D.T.Djalilov**

Yozyovon tuman hokimining
2024-yil 11-iyundagi
146-11-165-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Yozyovon tumani 3-sektor shtabi tarkibi

1.	M.Qunduzov	-	Tuman IIB boshlig‘i, **sektor shtabi rahbari**
2.	Sh.Mirzaliyev	-	Tuman hokimining o‘rinbosari, **sektor shtabi rahbari o‘rinbosari**
3.	M.Egamov	-	Tuman prokurori o‘rinbosari, **sektor shtabi rahbari o‘rinbosari**
4.	I.Xosilov	-	Tuman DSI boshlig‘i o‘rinbosari, **sektor shtabi rahbari o‘rinbosari**
5.	U.Toshpo‘latov	-	Tuman IIB boshlig‘i o‘rinbosari, **sektor shtabi rahbari o‘rinbosari**
6.	Z.Shumqorov	-	Tuman IIB, JXX HPB IPG katta inspektori, **sektor kotibi**
7.	E.Mirzaaxmedov	-	Tuman prokuraturasi, tuman prokurori yordamchisi
8.	A.Xalilov	-	Yozyovon tumani davlat soliq inspeksiyasi, soliq inspektori
9.	Sh.Mamasaidov	-	Tuman moliya bo‘limi mutaxassisi
10.	A.Mamatqulov	-	Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi boshlig‘i o‘rinbosari
11.	A.Orziyev	-	“Agrobank” Yozyovon tumani filiali mutaxassisi
12.	Sh.Sultonov	-	Yer resurslari va davlat kadastri bo‘limi mutaxassisi
13.	B.Xusanboyev	-	Tibbiyot birlashmasi vrachi
14.	I.Usmonov	-	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi, oziq-ovqat bo‘limi boshlig‘i
15.	D.Nazirov	-	Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi xodimi
16.	I.Sayfutdinov	-	O’zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi inspektori
17.	A.Abdullayev	-	Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha kengashi xodimi
18.	D.Solizoda	-	O’zbekiston yoshlar ittifoqi tuman kengashi mutaxassisi
19.	R.Abdulazizov	-	Tuman gaz korxonasi mutaxassisi
20.	J.G’oyipov	-	«O’zsuvta’minot» AJning hududiy mas’uliyati cheklangan jamiyatining tuman bo‘limi injeneri
21.	F.Sherbo‘tayev	-	Tuman elektr tarmoqlari korxonasi mutaxassisi

* **Izoh:** Tumanlar (shaharlar) hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar shtabi tarkibiga sektor rahbarlarining qarori bilan boshqa davlat organlari va tashkilotlarining vakillari ham jalb etilishi mumkin.

Sektor shtabiga davlat organlari va tashkilotlarning mas’ul lavozimlarida faoliyat yuritayotgan xodimlari biriktiriladi.